

INTERNET PROPAGANDASI: ZAMONAVIY TAHDIDLAR VA ULARNING IJTIMOIY ONGGA TA'SIRI

To'raqulov Do'stmurod Komil o'g'li

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, bakalavr talabasi.

E-mail: toraqulovdostmirodacademic@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15727764>

Annotatsiya. Ushbu maqolada internet tarmog'ida olib borilayotgan propagandaviy faoliyatlarining mazmuni, shakli va uslublari hamda ularning ijtimoiy ongga ta'siri tahlil qilingan. Raqamli axborot platformalarida keng tarqalgan dezinformatsiya, hissiy manipulyatsiya va sun'iy ong shakllantirish vositalari orqali insoniyat ongiga qanday ta'sir qilinayotgani ochib berilgan.

Shuningdek, bloggerlik faoliyati, xususan 'Ustoz Eshon' kabi ijtimoiy ongga ma'naviy asosda ta'sir ko'rsatishga intilayotgan kontent yaratuvchilarning ijobiy propagandadagi roli ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: internet, propaganda, axborot xavfsizligi, ijtimoiy ong, bloggerlik.

Kirish

Bugungi kunda internet inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Axborot oqimi har qachongidan ham kuchli bo'lib, odamlar har kuni minglab xabarlariga duch keladi. Ammo bu xabarlarining barchasi ishonchli, neytral yoki foydali emas.

Raqamli axborot muhiti tobora ko'proq inson ongi ustidan hukmronlikka aylangan. Odamlar, ayniqsa yoshlar, ko'pincha sezmasdan turib, ma'lum mafkuraviy yoki hissiy yo'nalishga ega axborotlar ta'siriga tushib qolmoqda. Shu bois, internet propagandasi bugungi kunda eng dolzarb va tahlikali masalalardan biriga aylangan.

Maqolada aynan shu jarayonlar o'rganilib, zararli va foydali propagandaning farqlari, ularning yoshlar ongiga ta'siri, shuningdek ijtimoiy tarmoqlardagi ijobiy yo'nalishdagi bloggerlar, xususan 'Ustoz Eshon' faoliyati misolida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi

Internet propagandasi mavzusi so'nggi yillarda dunyo miqyosida keng o'rganilmoqda. Manuel Castells (2009) o'zining 'Communication Power' asarida axborot oqimlarini boshqarish orqali jamiyatdagi ongni shakllantirish imkoniyati haqida yozadi.

Evgeniy Morozov (2011) esa internet erkinligi ortidagi xavf-xatarlarni, ya'ni raqamli nazorat va dezinformatsiya orqali olib borilayotgan manipulyatsiyalarni fosh etadi. Danah Boyd (2014) yoshlar va ijtimoiy tarmoqlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur tahlil qiladi.

Herbert Shiller esa 'Digital Capitalism' asarida internet kapitalizmi va g'arb mafkuraviy ustuvorligi orqali axborot maydonini boshqarishni tanqidiy yondashuvda ko'rsatadi.

O'zbekiston kontekstida esa 'Ustoz Eshon' nomi bilan tanilgan blogerning diniy-ma'naviy yo'nalishdagi chiqishlari, ijobiy propagandaga misol bo'la oladi. Uning faoliyati axloq, sabr, va milliy qadriyatlarga asoslangan ma'lumotlar tarqatish orqali yoshlar ongiga foydali ta'sir o'tkazmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqola kontent tahlili, kuzatuv, taqqoslash va shartli misollar asosida yozilgan. Turli ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlar, blogerlar chiqishlari, va xalqaro ilmiy manbalar asosida muammoga tizimli yondashuv qo'llanildi.

Tahlil va natijalar

Internet orqali tarqatilayotgan axborotlar bugun odamlar fikri, qarashlari va qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarda ko'rilayotgan kontentlar ularning ongiga chuqur singib boradi.

Bunga qarshi misol sifatida 'Ustoz Eshon'ning faoliyati tahlil qilinadi. U axloqiy-ruhiy qadriyatlar, milliy o'zlik, ota-onaga hurmat, diniy savodxonlik kabi ijtimoiy ongni mustahkamlovchi g'oyalarni tarqatadi. Uning chiqishlari hissiy jihatdan kuchli bo'lsa-da, ijobiy ijtimoiy ong shakllanishiga xizmat qiladi.

Ustoz Eshon misolida ko'rinadiki, internet propagandasi faqat zararli bo'lishi shart emas — agar u sog'lom g'oyalar asosida olib borilsa, yoshlar va jamiyat uchun foydali ham bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Internet propagandasi zamonaviy axborot muhitining ajralmas qismiga aylangan. Bu hodisa inson ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadi — salbiy shaklda bo'lsa, dezinformatsiya va ijtimoiy beqarorlikka sabab bo'ladi, ijobiy shaklda bo'lsa esa ma'naviy yuksalish va ongli fuqarolikni mustahkamlaydi.

Maqolada olib borilgan kuzatish va tahlillar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Maktab va oliy ta'lim muassasalarida media savodxonlik va tanqidiy fikrlash bo'yicha darslar joriy etish;
- Axborotni ongli tarzda qabul qilish madaniyatini targ'ib qilish;
- Ijobiy kontent yaratuvchi blogerlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- Raqamli platformalardagi zararli propaganda kontentlarini aniqlash va baholovchi monitoring tizimlarini kuchaytirish.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Castells, M. (2009). Communication Power. Oxford University Press.
2. Morozov, E. (2011). The Net Delusion. PublicAffairs.
3. Boyd, D. (2014). It's Complicated. Yale University Press.
4. Schiller, H. (2000). Digital Capitalism. MIT Press.
5. O'zbekiston Respublikasi Axborot xavfsizligi konsepsiyasi. (2022).
6. Prezident Farmoni PF-14 (2023). Axborot sohasini isloh qilish.
7. "Ustoz Eshon" blogeri (2023). YouTube va Telegramdagi chiqishlar asosida tahlil.
8. Mamatov, A. (2021). Internet va ijtimoiy ong. Ijtimoiy fanlar jurnali.
9. Karimova, D. (2020). Raqamli axborot va yoshlar. Sotsiologiya to'plami.
10. Qodirov, S. (2022). Dezinformatsiyaga qarshi kurash. ATJ jurnali.
11. Strategik tadqiqotlar instituti. (2023). Yoshlar va internet xavfsizligi.
12. Anderson, C. (2017). Propaganda in the Digital Age. J. Mass Comm.
13. Jenkins, H. et al. (2016). Participatory Culture. Polity Press.